# ABU NASR FOROBIYNING AXLOQIY VA TARBIYAVIY QARASHLARI

**Djumaniyazova Qalbike Qalievna**
**Nukus shahar №36-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Abu Nasr Forobiyning axloqiy qarashlari, jumladan, ta'lim-tarbiya masalalari, adolatli jamiyatga erishish yo'llari, fozil shahar hokimi va aholisining fazilatlari kabi masalalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat, jamiyat, axloq, xulq, odob, ta'lim, tarbiya, gumanist.

**Kirish (Introduction).** Ma'lumki biz yashayotgan diyor o'zining qadimiyligi, boy madaniy merosi va yuksak qadriyatlarga ega. Jumladan, buyuk mutafakkirlarimiz Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al- Buxoriy, al-Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband, Ahmad al-Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va yurtimizda yashab ijod etgan boshqa ko'plab siymolar jahon fani, madaniyati va sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shganlar.

Shu sababli mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun ajdodlarimizning madaniy-ma'naviy boyligini chuqur va har tomonlama o'rganishimiz darkor" [1,14] – deya alohida ta'kidlab, xalqimizning boy madaniy merosini izchillik bilan o'rganishga, undan yoshlar ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishda foydalanishga da'vat etib kelmoqdalar.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosini o'rganishga Yevropa olimlaridan M.Alonsa, D.M.Donlap, A.Shtekl, B.M.Shtrenshneyder, R.Xammond, G.Farmer, N.Rishar va

boshqalar o‘z hissalarini qo‘shgan bo‘lsa, rus olimlaridan A.Krimskiy, M.M.Filippov, V.V.Bartold, S.N.Grigoryan va boshqalar Forobiy asarlarini tadqiq etish borasida ko‘p ish qildilar. Forobiyning boy ilmiy merosini o‘rganishda, respublikamiz olimlarining hissasi ham katta bo‘ldi. Ulardan, I.M.Mo‘minov, V.Y.Zohidov, M.K.Oripov, R.Nosirov, H.Aliqulov, O.Fayzullayev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini alohida ta’kidlash lozim.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tadqiqotda tizimli-tahlil, tarixiylik, mantiqiylik, kompleks yondashuv metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Abu Nasr Forobiy (873-950) Yunon falsafasini chuqur o‘rganganligi va unga sharhlar bitganligi va jahonga targ‘ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o‘zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo‘shgani uchun “al Muallim assoniy” “Sharq Arastusi” nomlariga sazovor bo‘ldi.

Ba’zi manbalarda Forobiyning 70 dan oshiq tilni bilganligi va 160 dan ortiq asar yozganligi haqida so‘z etiladi.

Farobiy dunyoqarashida ijtimoiy-siyosiy va axloqiy fikrlar ham muhim o‘rinni egallaydi. Allomaning “Baxtsaodatga erishuv haqida”, “Fozil shahar aholisining fikrlari”, “Baxtsaodatga erishuv yo‘llari haqida risola”, “Fazilatli xulqlar”, “Buyuk kishilarning naqllari”, “Musiqa haqida katta kitob”, “Fuqarolik siyosati” va boshqa asarlari jamiyat va uni boshqarish, axloq-odob va ta’lim-tarbiya masalalariga bag‘ishlangan.

Farobiy ulug‘ gumanist, insonparvar faylasuf sifatida o‘z asarlarida inson qadr-qimmatini kamsituvchi va o‘zga mamlakatlarni bosib olishga asoslangan jamiyatga qarshi chiqadi. Mutafakkir odamlarni tinch-totuv va o‘zaro hamkorlikda yashashga, insonparvar bo‘lishga da’vat etadi. “Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos insoniylikdir, shuning uchun odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari uchun o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim”, — deydi mutafakkir.

Forobiy asarlari orasida “Fozil odamlar shahri» asari alohida ahamiyatga ega. Unda jamiyatning (insonlar jamoasi) kelib chiqishi, adolatli jamiyatga erishish

yo‘llari, fozil shahar hokimi va aholisining fazilatlari, davlat hokimiyati va boshqaruvchi kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish kabi masalalar bayon etilgan[2,159].

Fozil jamiyat hokimi, alloma fikricha, qator tug‘ma tabiiy xislatlarga ega bo‘lishi lozim:

- tabiatan nozik, farosatli bo‘lishi;
- komil a‘zolarga ega bo‘lishi;
- yaxshi xotiraga ega bo‘lishi, ko‘rgan, eshitgan va idrok etgan narsalarining tafsilotlari bilan yodda tutishi;
- o‘tkir zehnli, zukko bo‘lishi;
- ifodali nutqqa ega bo‘lishi;
- ta‘lim olishga, bilim va ma‘rifatga havasli bo‘lish, o‘qish va o‘rganishda sira charchamaydigan, mashaqqatidan qochmaydigan bo‘lishi;
- badnafslik, ichkilik va shahvoniy hislardan o‘zini tiya oladigan bo‘lishi;
- haqiqatni va uning uchun kurashuvchilarni yaxshi ko‘rish, yolg‘ondan va yolg‘onchilardan nafratlanishi;
- o‘z qadrini biluvchi va or-nomusli odam bo‘lishi, tug‘ma oliy himmat bo‘lish va ulug‘ ishlarga intilishi;
- mol-dunyo ketidan quvmaydigan bo‘lishi;
- tabiatan adolatparvar bo‘lishi;
- zarur beb bilgan harakatni amalga oshirishda qat‘iyatli, sabotli, jur‘atli, jasur, mard bo‘lishi,
- qo‘rqoqlik va hadiksirashlarga yo‘l qo‘ymasligi [2].

Farobiy shahar-davlatlarni fozil va johilga ajratadi. Fozil shahar xalqini baxtsaodatga eltishi, uning boshlig‘i esa adolatli, yuksak axloqli va ma’rifatli, o‘zida butun ijobiy xislatlarni to‘plagan bo‘lishi lozim. Lekin, shunday shahar yoki mamlakatlar bo‘ladiki, ularning aholisi nafsga berilgan, butun fikri-zikri boylik to‘plash bo‘ladi. Forobiy bunday shaharlarni johil shaharlar deb ataydi. Johil shaharlarning boshliqlari ham faqat boylik to‘plashga ruju qo‘ygan bo‘ladi. “Ulardan chiqqan rahbar ham, — deb ta’kidlaydi alloma, — rahbarlikni mol-dunyo

ko‘paytirishda deb biladi. Shuning uchun ham ular ertayu-kech mol-dunyo to‘plash harakatida bo‘ladi. Bunday rahbarlarning qo‘l ostida bo‘lgan shahar xalqida har turli buzuq odatlar, shahvoniy nafs, bir-birini ko‘rolmaslik, bir-birini talash, dushmanlik, nizo-janjallar paydo bo‘ladi”.

Forobiyning yozishicha, haqiqiy baxtga erishish uchun harakat qiluvchi, o‘zaro yordam qiluvchi, xalqini birlashtirgan shahar — fozil shahar hisoblanadi. Baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam bergan va birlashgan kishilar fazilatli jamoa bo‘ladi. Farobiy fikriga ko‘ra, davlatni idora etuvchi shaxs o‘zining fazilat va xulq-odobi bilan ajralib turishi kerak. Farobiyning talqinicha, fozil shaharlar yuqori madaniyatli bo‘ladi. Unda yashaydigan xalq o‘zi istagan kasb-hunarni egallaydi. Bunday jamiyatda to‘la erkinlik va teng huquqlik hukm suradi.

Farobiyning fozil jamoa haqidagi ta’limoti uning axloqiy kamolot va baxtsaodatga erishuv hamda insonparvarlik g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liqdir. U o‘zining ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy qarashlari markaziga insonni, uning maqsad muddaolarini o‘rganishni, axloqiy kamolot va baxtsaodatga erishuv yo‘llarini ko‘rsatishni qo‘yadi. Axloqiy kamolot deganda, xayr-ehsonli ishlar, go‘zal insoniy fazilatlarni tushunadi. Axloqiy kamolotga xalaqit beruvchi salbiy xislatlarga dangasalik, bekorchilik, bilimsizlik, ongsizlik, kasb-hunarsizlikni kiritadi. Farobiy aql, ilm va ma’rifatni baxtsaodatga erishishning asosiy vositasi deb bildi. U ilmli, aqlli bo‘lishni axloq fazilatisiz tasavvur qilmagan, “bilim, aql, albatta, yaxshi axloq bilan bezalmog‘i lozim” deydi [3,14].

Forobiy o‘zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan. Demak, Forobiy inson baht – saodatga erishuvi uchun ularni bahtli – saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo‘lishi kerak deydi. U fozil shaharni boshqaradigan Hokim tabiatdan:

1 – sog‘ – salomat bo‘lib, o‘z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmaligi;

2 – tabiati nozik, farosatli;

3 – hotirasi mustahkam;

4 – zehni o‘tkir;

5 – o‘z fikrini tushuntira oladigan notiq;

6 – bilim-ma’rifatga havasli;

7 – taom eyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o‘zini tiya oladiga bo‘lishi (qimor yoki boshqa o‘yinlardan) zavq, huzur olishdan uzoq bo‘lishi;

8 – haq va haqiqatni, odil va haqgo‘y odamlarni sevadigan, yolg‘onni va yolg‘onchilarni yomon ko‘radigan;

9 – o‘z qadrini biluvchi va oriyatli bo‘lishi;

10 – mol dunyo ketidan quvmaydigan;

11 – adolatparvar;

12 – qatiyatli, sabotli, jur’atli, jasur bo‘lishi.

Forobiy bu fazilatlarni har bir yetuk insonda ko‘rishni istaydi.

Shu bilan birga, mutafakkirning ta’lim-tarbiya yo‘llari, usullari vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l – ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug‘ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb – hunar, xulq odob fazilatlarini birlashtiradi. Ta’lim so‘z va o‘rganish bilan tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har ikkalasi birlashsa yetuklik namoyon bo‘ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko‘nikmalarni qay darajada o‘rganganligiga qarab paydo bo‘ladi, deb ko‘rsatadi.

Farobiy inson fazilatlarini tug‘ma va yashash jarayonida paydo bo‘ladigan fazilatlarga bo‘ladi. Olimning fikricha, tug‘ma fazilatlarga insonning o‘ta o‘tkir zehnliligi kiradi. Lekin tug‘ma fazilatlar hayotda kam uchraydi. Asosiy axloqiy fazilatlarni odam yashash davomida egallaydi. Tug‘ma fazilatli odamlar ham tarbiyaga muhtoj. Agar unday odamni tarbiyalab va to‘g‘ri yo‘lga solib turilmasa, uning qobiliyati tezda so‘nib qolishi mumkin. Tug‘ma qobiliyat ham nisbiy tushunchadir. Ba’zi kishilar tug‘ma qobiliyatini ishga solib yaxshi natijaga erishsa, boshqalari yomon natijaga erishishi mumkin.

Farobiy musiqani inson tarbiyasiga ta’sir qiluvchi omillardan biri deb bildi. U musiqani insonga nafosat, estetik zavq bag‘ishlovchi, his-tuyg‘ulari va axloqini tarbiyalovchi muhim vosita, deb hisoblaydi. Mutafakkir “Musiqa haqida katta kitob” nomli ko‘p jildli asarida musiqa nazariyasi va tarixi, turli musiqa asboblari, kuylar va ularning ichki tuzilishi, tovushlar, ritmlar, ohanglar haqida ma’lumot berdi; ilmi iyqo, ilmi ta’lif fanlariga asos soldi. Yuqoridagi asarida o‘tmishdagi musiqashunos va tadqiqotchilar musiqa taraqqiyotiga katta hissa qo‘shganligini alohida qayd qiladi. Shuningdek, kuylar uyg‘unligi, kuy ijro etish usullari haqida so‘z yuritadi. Rivoyatlarda keltirilishicha, Farobiy yangi musiqa asbobi yaratgan, kuy bastalagan, mohir sozanda sifatida nom chiqargan. Farobiyning aytishicha, musiqiy tasavvurlar inson ruhining eng nozik joyidan qaynab chiqib, ohang holida sezgi quvvatlariga ta’sir qiladi.

**Xulosa (Conclusion).** Farobiyning dunyoqarashi, uning jamiyat va axloq to‘g‘risida yaratgan yaxlit ta’limoti ilk o‘rta asrlar va keyingi davrlarda ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va axloqiy fikr rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning qarashlari Sharq mamlakatlariga keng yoyildi.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin, qomusiy olimning asarlari o‘zbek tilida chop etila boshladi, uning boy merosi xolisona, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari asosida yoritila boshlandi Oliy o‘quv yurtlari, maktab va kutubxonalar, ko‘chalar uning nomi bilan ataladi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir[1],” – degan edi. Zero, bunday yoshlarni tarbiyalashda Sharq mutafakkirlari merosi, shu jumladan, Farobiyning ta’lim-tarbiya masalalariga bag‘ishlangan asarlari muhum ahamiyatga egadir [4].

Bugun mamlakatimizda kechayotgan islohotlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani o‘tmish merosimizdagi barcha ilg‘or qadriyatlar, axloqiy normalar, huquqiy tamoyillarni o‘ziga singdirib, eski, o‘z umrini yashab bo‘lgan,

bugungi kun talablariga aslo javob bermaydigan jihatlardan esa qat‘iyan voz kechayotgan davlatimiz siyosatining aynan Forobiy kabi donishmand ajdodlarimiz tafakkuri, erishgan yutuqlari davlat siyosatidan tobora mustahkam o‘rin olayotganidan dalolat bermoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 14 b.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993. – B. 159.
3. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1996. – B.14.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar — kelajagimiz” davlat dasturi to‘g‘risidagi PF-5466-son Farmoni, 27.06.2018.